O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 11 - sentabr 471-3-0-Q/23 Jizzax viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 434-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

So‘nggi yillarda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishning samarali tizimini yaratish, shuningdek, nogironligi bo‘lgan bolalarni hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, xotin-qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid qonunchilik hujjatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ushbu qaror bilan xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq tushunchalarni yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘lgan qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga beriladigan himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish hamda yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Xotin-qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, shuningdek, amaldagi qonunchilik hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2023-yil 11-apreldagi O‘RQ-829-son Qonuniga muvofiqlashtirish maqsadida “Mahalliy davlat

hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Xotin-qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 434-sonli Qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, guruh rahbarlari, kotibiyat mudirlari, boshqarma boshliqlari viloyat hokimligining Umumiy bo‘limi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga asosan, Jizzax viloyati hokimi tomonidan qabul qilingan qarorlarni xatlovdan o‘tkazib, zarur hollarda sohaga oid qarorlariga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish choralarini ko‘rsin.

4. Manfaatdor idoralar, shahar va tumanlar hokimliklari o‘zlari qabul qilgan qarorlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Savurbayev va N.Muxtorova zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **E.Saliev**

Jizzax viloyat hokimining
2023-yil 11-sentabrdagi
471-3-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilayotgan ayrim hujjatlar

RO‘YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida” 2014-yil 22-sentabrdagi 269-son qarorida:

a) 1-bandning uchinchi xatboshisidagi “davlat reyestri” so‘zlari “axborot tizimi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-ilovada:

2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Vasiylik va homiylik faoliyati:

a) voyaga yetmaganlarga nisbatan - tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu’balari tomonidan;

b) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb e’tirof etilgan fuqarolarga nisbatan, shuningdek, sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiy tayinlashga muhtoj bo‘lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga nisbatan - tuman, shahar tibbiyot birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi”;

5- bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu’balari vasiylik va homiylik sohasida o‘z vakolatlari doirasida”;

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar haqidagi ma’lumotlarning axborot bazasini yuritadi, shuningdek, davlat statistika hisobotini tegishli davlat statistika organiga qonunchilikda belgilangan shaklda va muddatlarda taqdim etadilar;

quyidagi mazmundagi o‘n to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar

to‘g‘risidagi, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulki haqidagi ma’lumotlarni axborot tizimiga kiritadilar”;

o‘n to‘rtinchi va o‘n beshinchi xatboshilar tegishincha o‘n beshinchi va o‘n oltinchi xatboshilar deb hisoblansin;

o‘n oltinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu’balari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin”;

6-bandning ikkinchi - beshinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolarni, shuningdek, sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarni aniqlaydilar hamda ularning hisobini yuritadilar;

muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar hamda sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslar haqidagi ma’lumotlarning axborot bazasini yuritadilar, ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining ma’lumotlar bazasiga kiritish uchun taqdim etadi, shuningdek, davlat statistika hisobotini tegishli davlat statistika organiga qonun hujjatlarida belgilangan shaklda va muddatlarda taqdim etadilar;

muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar hamda sog‘lig‘i holatiga ko‘ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlaydilar;

muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolarni vasiylik yoki homiylikka, sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarni esa homiylikka joylashtirilishini ta’minlaydilar”;

7-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

8-bandning oltinchi xatboshisida va 38-bandning to‘rtinchi xatboshisidagi tegishli kelishikdagi “davlat reyestri” so‘zlari tegishli kelishikdagi “axborot tizimi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

39-bandning uchinchi xatboshisidagi “tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi, bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi,” so‘zlari “tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu’balari,” so‘zlari bilan almashtirilsin;

6-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu’balari, tibbiyot birlashmalarining vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyati”;

41-banddagi “tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlarining” so‘zlari “tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu’balarining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

42- va 43-bandlardagi “, bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari” so‘zlari chiqarib tashlansin;

44-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan va sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylikka muhtoj bo‘lgan voyaga yetgan fuqarolarni aniqlash hamda ularning hisobini yuritish;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan shaxslar va ularga tegishli mol-mulkning, shuningdek, vasiy yoki homiy bo‘lish istagini bildirgan shaxslarning hisobini yuritish, sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan voyaga yetgan fuqarolar, ularni joylashtirish haqidagi ma’lumotlarni axborot tizimiga kiritish uchun tuman, shahar hokimligiga taqdim etish”;

49- va 50-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

51-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“51. Tuman, shahar tibbiyot birlashmalari huzuridagi vasiylik va homiylik bo‘yicha komissiyalar tarkibi tibbiyot birlashmasi rahbari buyrug‘i bilan tasdiqlanadi”;

56-bandning birinchi xatboshisidagi va 61-banddagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar” so‘zlari “tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu’balari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

73-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“73. Ota-ona uch oydan ortiq muddatga yashash joyidan, shu jumladan, chet davlatga vaqtincha chiqib ketayotganida O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq o‘z bolasiga vasiy

yoki homiy tayinlash choralarini ko‘rishi shart.

Ota-ona uch oydan ortiq bo‘lmagan muddatga yashash joyidan, shu jumladan, chet davlatga vaqtincha chiqib ketayotganida o‘z bolasini qarindoshlarining yoki boshqa yaqin kishilarining vasiyligida yoki homiyligida va nazorati ostida qoldirishi shart. Bu holda vasiylik yoki homiylik agar bolaning manfaatlari uchun zarur bo‘lsa, belgilanadi.

Ota-ona uch oydan ortiq muddatga yashash joyidan, shu jumladan, chet davlatga vaqtincha chiqib ketishidan kamida bir oy oldin o‘z bolasiga vasiy yoki homiy tayinlash to‘g‘risidagi arizani o‘zi vaqtincha yoki doimiy yashayotgan hududning vasiylik va homiylik organiga berishi kerak”;

90-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Vasiy yoki homiyning o‘z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning ta’minotiga doir xarajatlarining o‘rni vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs mablag‘lari hisobidan qoplanadi, bu mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda esa, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning ta’minoti uchun vasiy va homiyga qonunchilikda belgilangan tartibda nafaqa tayinlanishi mumkin”;

ilovada:

“Subyektlar” ustuning birinchi blokidagi “mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari” so‘zlari chiqarib tashlansin;

v) 2-ilovaning matnidagi tegishli kelishikdagi “davlat reyestri” so‘zlari tegishli kelishikdagi “axborot tizimi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) 3-ilovaning 2-bandi beshinchi xatboshisidagi “davlat reyestri” va “tuman, shahar hokimligiga” so‘zlari tegishincha “axborot tizimiga” va “tuman (shahar) hokimligining bolalarni himoya qilish shu’basiga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. Vazirlar Mahkamasining “Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari boshqaruv apparatlari to‘g‘risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida” 2016-yil 27-apreldagi 123-son qarorida:

a) 2-ilovaning 12-bandi beshinchi xatboshisidagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning” so‘zlari “bolalar masalalari bo‘yicha komissiyaning” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 3-ilovaning 12-bandi beshinchi xatboshisidagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning” so‘zlari “bolalar masalalari bo‘yicha

komissiyaning” so‘zlari bilan almashtirilsin.

3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017 yil 5 oktabrdagi 799-son qarorda:

a) nomi, 1-, 3- va 7-bandlardagi tegishli kelishikdagi “Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” so‘zlari tegishli kelishikdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 8-bandda:

“Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga” so‘zlari “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi tahrirda ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga sud qarori bilan haq to‘lanadigan jamoat ishlari jazosi tayinlangan shaxslarni haq to‘lanadigan jamoat ishlariga joylashtirishda, Probatsiya xizmati va uning hududiy bo‘linmalariga har tomonlama amaliy ko‘maklashish va samarali hamkorlikni tashkil etish uchun shaxsiy javobgarlik yuklansin”;

v) 3-ilovada:

2-bandning to‘rtinchi xatboshisi qo‘yidagi tahrirda bayon etilsin:

“jamoat ishlarini bajaruvchi shaxs-haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etilishi yuzasidan sudning qarori asosida hamda belgilangan tartibda ishsiz deb e'tirof etilgan, shuningdek, ish izlovchi shaxs sifatida ro‘yxatga olingan va jamoat ishlarida qatnashish uchun jalb qilingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (keyingi o‘rinlarda -fuqaro)”;

3-band quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“sud qarori asosida shaxslarni haq to‘lanadigan ijtimoiy foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy ravishda jalb etish”

uchinchi - oltinchi xatboshilar tegishincha to‘rtinchi - yettinchi xatboshilar deb hisoblansin;

5-bandning uchinchi xatboshisidagi “Ishsiz” so‘zi “Sudning qarori asosida haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etilishi belgilangan, shuningdek, ishsiz” so‘zlari bilan almashtirilsin;

13-bandning birinchi xatboshisi “talabdan kelib chiqqan holda” so‘zlaridan keyin “sudning qarori asosida haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etilishi belgilangan hamda” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

17-banddagi “o‘z roziligi asosida taqsimlanadi” so‘zlaridan keyin “(sud qaroriga asosan haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etilgan shaxslar bundan mustasno)” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

20-banddagi “va band bo‘lmagan fuqarolar” so‘zlari band bo‘lmagan va sud qaroriga asosan haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etilgan shaxslar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

22-band qo‘yidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etilgan shaxslar ish joyida muntazam yo‘q bo‘lgan holatlar yuzasidan ABKM xodimlari tomonidan probatsiya bo‘linmalariga xabarnoma yuboriladi”;

25-bandda:

qo‘yidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etilgan shaxslar ish haqining ellik foizi aliment majburiyatlari bo‘yicha qarzni to‘lashga yo‘naltiriladi”;

ikkinchi xatboshi uchinchi xatboshi deb hisoblansin;

28-bandda:

birinchi xatboshidagi “ishsiz va band bo‘lmagan” so‘zlari “jamoat ishlarida qatnashuvchi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

qo‘yidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“ABKM, uz navbatida, jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etilgan shaxslarning ishlagan soati hamda bajarilgan ishlari yuzasidan xududiy probatsiya bo‘linmalariga ma'lumot taqdim etadi”;

33-bandning birinchi xatboshisi “band bo‘lmagan shaxsni” so‘zlaridan keyin “, shuningdek, haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etilgan shaxsni” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

g) 4-ilovada:

2-band “ishlariga yo‘naltirilgan” so‘zlaridan keyin “, shuningdek, sud qarori asosida haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etilgan” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

5-bandning ikkinchi xatboshisi “respublikaning barcha hududlarida” so‘zlaridan keyin “jamoat ishlariga majburiy jalb etilgan shaxslar hamda” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

4. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi 212-son qarori bilan tasdiqlangan Akademik litseylarga umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini tanlab olish, o‘qishga qabul qilish, ularning o‘qishini ko‘chirish va o‘qishdan chetlatish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 31-bandi ikkinchi xatboshisidagi “tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyaga” so‘zlari “tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu'balariga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi 322-son qarori bilan tasdiqlangan Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar va ma'muriy huquqbuzarlik yo‘li bilan ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan shaxslarni markazlashtirilgan hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

12-banddagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalarning” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalarning” so‘zlari bilan almashtirilsin;

34-banddagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar” so‘zlari “Tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu’balari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

6. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-noyabrdagi 971-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyiga o‘quvchilarni tanlab olish, o‘qishga qabul qilish va o‘qishdan chetlatish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 34-bandidagi “tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyaga” so‘zlari “tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu'balariga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-son qarori bilan tasdiqlangan Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini

berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to‘g‘risidagi nizomda:

a) 12-bandning birinchi xatboshisidagi “jabrlanuvchilarning” so‘zi “shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 21-bandda:

“b” kichik band quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi ishlayotgan yoki ta’lim olayotgan tashkilot rahbari taqdimnomani olganidan keyin uch ish kuni ichida jabrlanuvchi hamda tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi bevosita aloqani bartaraf etishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradi”;

“d” kichik bandda:

birinchi xatboshisidagi “O’zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida ijtimoiy reabilitatsiya qilishga hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olishga doir tadbirlar o‘tkazadi”;

beshinchi xatboshi tegishincha oltinchi xatboshi deb hisoblansin;

23-banddagi “ko‘pi bilan o‘ttiz kungacha” so‘zlari “bir yilgacha muddatga jinoyat ishlari bo‘yicha sud tomonidan” so‘zlari bilan almashtirilsin;

24-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“24. Tazyiq va zo‘ravonlik yoki ularni sodir etish xavfi bartaraf etilmagan takdirda, tegishli hududda tazyiq va zo‘ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas'ul bo‘lgan profilaktika (katta) inspektori tomonidan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra bir ish kuni ichida himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish bo‘yicha materiallar tayyorlanadi hamda himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnoma rasmiylashtirilgan holda jabrlanuvchining yashash

joyidagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga yuboriladi”;

25-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

26-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“26. Himoya orderining amal qilish muddati uzaytirilgan takdirda, zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar zo‘ravonlik xulq-atvorini o‘zgartirish bo‘yicha tuzatish dasturidan o‘tadi”;

28-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“28. O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga himoya orderini berish hamda uni uzaytirish to‘g‘risidagi arizaning qonuniy vakili, vasiylik yoki homiylik organining vakili hozirligida ko‘rib chiqiladi”;

33-banddagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasiga” so‘zlari “Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

8. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-avgustdagi 473-son qarori bilan tasdiqlangan “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi to‘g‘risidagi nizomning 63-bandi ikkinchi xatboshisidagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalariga” so‘zlari “bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalariga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

9. Vazirlar Mahkamasining “Voyaga yetmagan shaxslarga jamoat tarbiyachilarini tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 3-iyundagi 339-son qarorida:

1- bandning b-kichik bandidagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha tuman (shahar) idoralararo komissiyasi” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ilovaning 5-bandi birinchi xatboshisidagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha tuman (shahar) idoralararo komissiyasi” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

10. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-oktabrdagi 656-son qarori bilan tasdiqlangan Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 2-bandi uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola - ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi yoki cheklanganligi, bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi yoxud muomalaga layoqati cheklanganligi, bolani tarbiyalashdan yoki uning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlaganligi, shu jumladan, uzrsiz sabablarga ko‘ra o‘z bolasini tug‘uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortganligi yoxud ota-ona qaramog‘i mavjud bo‘lmagan boshqa holatlar sababli ota-ona yoki yagona ota (ona) qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola”.

11. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-son qarori bilan tasdiqlangan Bolalarni davlat umumiy o‘rta ta'lim muassasalariga qabul qilish hamda o‘quvchilarni bir umumiy o‘rta ta'lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma'muriy reglamentining 50-bandidagi “tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyani” so‘zlari “bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyasini” so‘zlari bilan almashtirilsin.